



HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA DAVLATNING ROLI.

Botirov Nurbek

Toshkent davlat transport universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrası 4-bosqich talabasi. botirovn0212@gmail.com

Mamataliyev To'liq Xushmamat o'g'li

Ilmiy rahbar: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligi ta’lim muassasalari xalqaro va milliy ko‘rsatkichlari samaradorligini baholash bo‘limi bosh mutaxassisi fan doktori

THE ROLE OF THE STATE IN THE FORMATION OF LEGAL CONSCIOUSNESS AND LEGAL CULTURE.

Nurbek Botyrov, 4th year student of the Department of "Public International Law" of the Faculty of Economics of Tashkent State Transport University. botirovn0212@gmail.com

Scientific advisor: Chief Specialist of the Department for Assessing the Effectiveness of International and National Indicators of Educational Institutions of the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Science
Mamataliyev Tolqin Khushmamat oglu

Annotatsiya : Mazkur maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim omili sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Unda normativ-huquqiy hujjatlarning mukammalligi hamda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi fuqarolarning huquqiy bilimi, huquqqa bo‘lgan ongli munosabati va huquqiy normalarni amaliyotda qo‘llay olish darajasiga bevosita bog‘liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, aholining barcha qatlamlari o‘rtasida huquqiy targ‘ibotni tizimli va uzluksiz tashkil etishning ahamiyati ochib berilib, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishda davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni yoritiladi. Maqolada yuksak huquqiy madaniyatni ta’minlash orqali qonun ustuvorligini mustahkamlash va islohotlar natijadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar : fuqarolik jamiyati, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik, ijtimoiy ong, “Legal Tech”, ommaviy axborot vositalari, “Taraqqiyot strategiyasi”

Аннотация : В данной статье научно-теоретически анализируются вопросы повышения правового сознания и правовой культуры как важного фактора формирования правового государства и гражданского общества. В ней обосновывается прямая взаимосвязь совершенства нормативно-правовых актов и эффективности



проводимых реформ с правовыми знаниями граждан, их сознательным отношением к праву и способностью применять правовые нормы на практике. Также раскрывается значимость систематической и непрерывной правовой пропаганды среди всех слоев населения, освещается роль государственных органов и институтов гражданского общества в формировании правового сознания и правовой культуры. В статье выдвигаются научные выводы, направленные на укрепление верховенства закона и повышение эффективности реформ через обеспечение высокой правовой культуры.

Ключевые слова : гражданское общество, правосознание, правовая культура, правовая грамотность, общественное сознание, «Legal Tech», средства массовой информации, «Стратегия развития»

Annotation : This article scientifically and theoretically analyzes the issues of enhancing legal awareness and legal culture as an important factor in forming a legal state and civil society. It substantiates that the perfection of normative-legal documents and the effectiveness of ongoing reforms are directly related to citizens' legal knowledge, their conscious attitude towards law, and their ability to apply legal norms in practice. It also highlights the importance of systematically and continuously organizing legal education among all segments of the population, and explains the role of state bodies and civil society institutions in shaping legal awareness and legal culture. The article puts forward scientific conclusions aimed at strengthening the rule of law and increasing the effectiveness of reforms through ensuring a high level of legal culture.

Keywords : civil society, legal awareness, legal culture, legal literacy, social awareness, “Legal Tech”, mass media, “Development Strategy”

Hozirgi kunda demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalasi beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Chunki qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda qonuniylik va adolatni qaror toptirish – avvalo, aholining huquqiy savodxonligiga bevosita bog'liq.

Jamiyatda fuqarolarning huquqiy ongini oshirmay turib huquqiy madaniyatni yuksaltsaltirib bo'lmaydi. Avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushunchalarining keng va batafsil ta'rifini berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqiy ong – bu ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir. Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo'ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari majmuidir. Shu nuqtayi nazardan huquqiy ongning tabiati va mohiyatiga yondashiladigan bo'lsa, uning mazmunida mustaqillik yillarida jamiyatda qaror topayotgan demokratik huquqiy qadriyatlar va tamoyillar, huquqiy tizimdagi islohotlar va modernizatsiyalash



jarayonlari xususidagi fuqarolarning qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, ruhiy kechinmalari majmui aks etadi. Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Jamiyatda huquqiy madaniyatning rivojlanish darajasi huquqiy davlatchilikning shakllanishining ko‘rsatkichidir. Jamiyatning huquqiy madaniyati yuksak bo‘lmasa, qonun ustuvorligini ta’minlash mumkin emas. Qonuniylik va huquqiy madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlash kerak. Umumiy va huquqiy madaniyati past bo‘lgan jamiyatda qonun ustuvorligini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Umumiy madaniyatning bir qismi sifatida huquqiy madaniyat huquqiy bilimlarning mavjudligini, huquqning ijtimoiy ahamiyatini tushunishni, qonun talablarini maqsadga muvofiq va adolatli deb baholashni, qonunlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni va ularga ixtiyoriy va ongli ravishda rioya qilishni nazarda tutadi. O‘z navbatida, qonuniylik jamiyat madaniyatining shakllanishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish sohasida so‘ngi yillarda bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida 2019-yil 1-sentabrdagi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sonli “Jamiyada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni buning yorqin ifodasidir. Farmonda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish sohasidagi xato va kamchiliklarni aniqlash va ularga barham berish, malakali yuridik kadrlarni tayyorlash, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklarga barham berish, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish kerakligi belgilab qo‘yilgan. Ushbu farmon doirasida tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Konsepsiyaning asosiy maqsad va vazifalari qilib, fuqarolar ongida **“Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!”** degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash; shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini targ‘ib qilish; davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish; davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish borasidagi hamkorligini mustahkamlash; ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta’minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ‘ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo‘llashni kengaytirish; yuridik ta’limni takomillashtirish, shuningdek,



yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish belgilab qo'yilgan.

“Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilansin. Ushbu g'oya jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Chunki huquqiy jihatdan yetuk, o'z huquq va majburiyatlarini chuqur anglaydigan jamiyatgina barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va fuqarolik birdamligiga erisha oladi. Shu bois aholining barcha qatlamlari — yoshlar, talaba-o'quvchilar, ishchi-xizmatchilar, tadbirkorlar, davlat xizmatchilari va keksalar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Huquqiy savodxonlik nafaqat qonunlarni bilish, balki ularning mazmun-mohiyatini tushunish, huquqiy oqibatlarni anglash va huquqiy bilimlarni kundalik hayotda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo'lgan shaxs jamiyatda sodir bo'layotgan huquqiy jarayonlarga befarq bo'lmaydi, qonunlarga hurmat bilan yondashadi, huquqbuzarliklarga murosasiz munosabatda bo'ladi hamda o'z manfaatlarini faqat qonuniy yo'l bilan himoya qilishga intiladi. Bu esa jamiyatda qonuniylik va tartib-intizomning mustahkamlanishiga, korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” Farmonida ham fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish sohasida bir qancha ishlar olib borilishi belgilab berilgan. Xususan, 20-maqсадda **Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish belgilab qo'yilgan. Ushbu maqsad doirasida quyidagi islohotlar amalga oshirilishi belgilangan;**

aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish;

tadbirkorlar va aholi, ayniqsa uning kam ta'minlangan qatlamlari uchun huquqiy hujjatlarni yurist ishtirokisiz tayyorlash imkonini beruvchi “Legal Tech” platformasini ishga tushirish;

Taraqqiyot strategiyasining 70-maqсadi “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” maqsadida esa, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish alohida belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga 71-maqсad **“Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari”**



g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish” sohasida aholi o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha huquqiy-ma‘rifiy tadbirlarni xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish bilan uyg‘un holda tashkil qilish belgilab qo‘yilgan.

Legal Technology yoki qisqacha Legal Tech – bu yuridik xizmatlarni ko‘rsatish va yuridik faoliyatni amalga oshirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologik yechimlar va dasturiy ta‘minotlar majmuidir. Richard Susskind o‘zining «Tomorrow’s Lawyers: An Introduction to Your Future» kitobida Legal Tech ni quyidagicha ta‘riflaydi: «Legal Tech – bu yuristlar va mijozlar o‘rtasidagi munosabatlarni tubdan o‘zgartirgan, huquqiy xizmatlarni ko‘rsatish usullarini modernizatsiya qilgan va yuridik kasb evolyutsiyasining muhim bosqichi bo‘lgan texnologik inqilobdir»

O‘zbekiston raqamli transformatsiya yo‘lidan jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, Legal Tech sohasi ham muhim o‘zgarishlar bosqichida turibdi. O‘zbekistonda Legal Tech rivojlanishi milliy xususiyatlar va global tendensiyalarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘lmoqda. Davlat siyosati darajasida Legal Tech rivojlanishi uchun muhim huquqiy va tashkiliy asos yaratilgan. «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasi, «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi qonun va boshqa me‘yoriy hujjatlar yuridik sohani raqamlashtirish uchun zarur huquqiy bazani shakllantirdi. Bu esa Legal Tech sohasining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. E-sud tizimining rivojlanishi O‘zbekistonda Legal Tech ning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sud tizimini raqamlashtirish loyihasi doirasida elektron hujjat aylanishi joriy etilgan, masofaviy sud muhokamalarini o‘tkazish imkoniyati yaratilgan, sud qarorlari elektron bazasi shakllantirilgan. E-sud platformasi orqali fuqarolar va yuristlar onlayn tarzda da‘vo arizalari yuborish, hujjatlar taqdim etish va sud jarayonlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Davlat xizmatlarining raqamlashuvi Legal Tech rivojlanishining yana bir muhim yo‘nalishi hisoblanadi. My.gov.uz portali va One.ID tizimi orqali ko‘plab yuridik ahamiyatga ega xizmatlar elektron shaklda ko‘rsatilmoqda. Bu esa fuqarolar va tadbirkorlar uchun ma‘muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va vaqtni tejash imkonini bermoqda.

2024-yil 25-maydagi qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5618-sonli “Ma‘muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas‘uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida” gi Farmonida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, qonunchilik hujjatlarini ijrochilarga yetkazish hamda ularning mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari samaradorligini oshirish maqsadida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida “Mahalla huquqshunosi” loyihasi amalga oshirilib, loyiha doirasida fuqarolarning o‘zini o‘zi



boshqarish organlari raislarining huquqiy bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borishga qaratilgan qisqa muddatli bepul o'quv kurslari tashkil etildi. Maktablarda 2024/2025 o'quv yilidan boshlab: Adliya vazirligining maxsus elektron platformasi orqali huquq fani o'qituvchilarining kasbiy bilim va ko'nikmalarini uzluksiz oshirib borish hamda ularni metodik ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilib, o'quvchilar o'rtasida “Huquq bilimdoni” fan olimpiadasi, huquq fani o'qituvchilari o'rtasida “Eng yaxshi huquq o'qituvchisi” ko'rik-tanlovi o'tkazib borilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo'lmasa kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi. Zero, qonun — qog'ozda yozilgan norma bo'lib qolmasdan, insonlarning ongida yashaganidagina real kuchga aylanadi. Eng mukammal qonunlar ham, eng puxta ishlab chiqilgan islohotlar ham, agar ularni amalga oshiruvchi va ularga amal qiluvchi fuqarolarning huquqiy saviyasi yuqori bo'lsagina, o'z samarasini beradi. Huquqiy bilimga ega bo'lmagan fuqaro o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglamaydi, huquqiy oqibatlarni oldindan baholay olmaydi va ko'pincha qonunni majburiyat sifatida emas, balki cheklov sifatida qabul qiladi. Bunday sharoitda qonunlarga bepisandlik, huquqbuzarliklarga muvofiqlik munosabat, adolatsizlikka ko'nikish holatlari yuzaga keladi. Natijada, jamiyatda qonun ustuvorligi zaiflashadi, islohotlar esa rasmiy ko'rsatkichlar doirasidagina qolib ketadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat esa shaxsni mas'uliyatli, faol va ijtimoiy jarayonlarga daxldor qilib tarbiyalaydi. Huquqiy jihatdan yetuk fuqaro nafaqat o'z manfaatlarini qonuniy yo'l bilan himoya qiladi, balki jamiyat va davlat manfaatlariga ham befarq bo'lmaydi. U qonunlarga majburiyat tufayli emas, balki ichki ishonch asosida amal qiladi. Aynan mana shu ichki ishonch huquqiy davlatning mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish fuqarolarning huquqiy faolligi uchun sifat jihatidan yangicha shart-sharoitlar yaratib qolmasdan, shu bilan birga huquqiy tarbiya mazmunida, uning shakl va usullarida jiddiy o'zgarishlar yasashni ham taqozo etadi. Zero, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qabul qilingan Milliy dasturning umumiy qoidalarida huquqiy madaniyatni shakllantirish va yuksaltirish sohasidagi davlat siyosati inson huquqlari va erkinliklarining ustuvorligi; Konstitutsiya va qonunning ustunligi; demokratiyaga asoslanganlik; ijtimoiy adolat; ilmiylik; uzluksizlik; huquqiy tarbiyadagi vorislik hamda umumiylik; huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi; huquqiy tarbiya va huquqiy maorifning birligi hamda ularga tabaqalashtirilgan yondashuvga alohida e'tibor qaratilgan.

REFERENCES:

1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent. «Adolat», 2018.



2. Davlat va huquq nazariyasi. Saydullayev Sh. 2024.
3. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Тошкент: Адолат, 2007.
4. Abukarimova G.N. Huquqiy ta'lim huquqiy madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida // NamDU ilmiy axborotnomasi
5. Рустамбеков И.И. Ҳуқуқ ва давлат умумий назарияси муаммолари [Проблемы общей теории права и государства]// МГУ. Ҳуқуқшунослик. – М.: НОРМА, 2019.
6. Ниязова Н.Н. Ўзбекистонда фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида ҳуқуқий маданиятнинг шаклланиши [Формирование правовой культуры в условиях становления гражданского общества в Узбекистане] . Қозон: Мир, 2019.
7. PF-5618-сон 09.01.2019. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida.
8. [PF-60-сон 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida.](#)
9. [PF-5618-сон 09.01.2019. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida](#)
10. [PF-80-сон 24.05.2024. Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish hamda ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to'g'risida](#)